Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, moliyalashtirish, kichik va o'rta korxonalar, eksport, import, davlat kreditlari, xalqaro moliya institutlari, bank foiz stavkalari, xomashyoga qaramlik, iqtisodiy diversifikatsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, global raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes the current state and prospective development directions of financing external economic activities of enterprises in Uzbekistan. The study examines factors related to improving the efficiency of financial resource utilization, optimizing interest rates, and diversifying export structures. It emphasizes the need to expand preferential credit programs, increase investments in the processing industry, and enhance mechanisms for financing external economic activities. The research results highlight the importance of strengthening the methodological foundations of financial support for external economic activities in Uzbekistan to ensure sustainable development.

Key words: external economic activity, financing, small and medium enterprises, export, import, state credits, international financial institutions, bank interest rates, dependence on raw materials, economic diversification, Uzbekistan's economy, global competitiveness.

Аннотация. В данной статье анализируется современное состояние и перспективные направления развития финансирования внешнеэкономической деятельности предприятий Узбекистана. В исследовании рассматриваются факторы повышения эффективности использования финансовых ресурсов, оптимизации процентных ставок и диверсификации структуры экспорта. Отмечается необходимость расширения программ льготного кредитования, увеличения инвестиций в перерабатывающую промышленность и совершенствования механизмов финансирования внешнеэкономической деятельности. Результаты исследования подчеркивают важность дальнейшего укрепления методологических основ финансовой поддержки внешнеэкономической деятельности для обеспечения устойчивого развития экономики Узбекистана.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, финансирование, малые и средние предприятия, экспорт, импорт, государственные кредиты, международные финансовые институты, банковские процентные ставки, сырьевая зависимость, экономическая диверсификация, экономика Узбекистана, глобальная конкурентоспособность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Ushbu jarayonlarda moliyalashtirishning metodologik asoslarini yanada



takomillashtirish tashqi bozorlarda barqaror ishtirokni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Davlat siyosati, mahalliy bank tizimi va xalqaro moliyaviy institutlarning resurslaridan samarali foydalanish korxonalar uchun tashqi bozorlarga chiqishda yangi moliyaviy mexanizmlar yaratish imkonini bermocda.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasining 2020–2024-yillar oralig'ida izchil o'sishi mamlakat iqtisodiyotining ochiqqligini kuchaytirganini ko'rsatadi. 2024-yilning dastlabki choragidagi o'sish sur'atlari tashqi iqtisodiy faoliyatda ijobiy dinamikani saqlab qolish imkonini bermocda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, korxonalarning global raqobatbardoshligini ta'minlash va mavjud mexanizmlarni yangicha yondashuvlar asosida optimallashtirish istiqbolda yanada keng rivojlanish uchun shart-sharoit yaratadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik va o'rta korxonalar faoliyatining kengayib borayotgani ularning iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirish imkonini beradi. Ushbu subyektlar uchun eksport salohiyatini rivojlantirish, bank kreditlari shartlarini maqbullashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish natijasida ularning tashqi bozorlardagi ishtiroki sezilarli darajada ortadi. Xalqaro amaliyot asosida qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish va xomashyoga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish eksport diversifikatsiyasi uchun yangi istiqbollar ochadi.

Moliyalashtirish manbalari nuqtayi nazaridan davlat resurslari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish iqtisodiyotni barqaror moliyaviy oqimlar bilan ta'minlaydi. 2023-yilda ajratilgan imtiyozli kreditlar hamda xalqaro moliya tashkilotlari bilan qo'shma dasturlar hajmining ortib borayotgani eksport-import operatsiyalarining barqaror moliyalashtirilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, savdo balansidagi muvozanatni yaxshilash, importni samarali boshqarish va eksport salohiyatini oshirish choralari milliy iqtisodiy tizimni yanada mustahkamlashga olib keladi.

O'zbekistonning WTOga a'zo bo'lish jarayoni hamda PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochmoqda. Moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli moliyalashtirish tizimlarini keng joriy etish va korxonalarning tashqi savdo salohiyatini oshirish orqali ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish kutilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yondashuvlarni amaliyotga joriy etish O'zbekistonning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda iqtisodiy modernizatsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish masalasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng o'rganilgan. Friederike Niepmann va Tim Schmidt-Eisenlohr o'z tadqiqotlarida xalqaro savdo operatsiyalarida banklarning o'rni hamda ularning xavf boshqaruvi mexanizmlarini tahlil qilib, bank akkreditivlari va hujjatli kolleksiyalar eksportyor hamda importyor o'rtasida ishonchni mustahkamlovchi asosiy moliyaviy instrumentlar sifatida qaralishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar savdo hajmini kengaytiradi va xalqaro bozor integratsiyasini tezlashtiradi.

Shuningdek, Vaubourg (Finance and International Trade: A Review of the Literature) o'z tadqiqotida xalqaro moliyaviy oqimlar va savdo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, moliyalashtirish tizimi barqarorligi eksport hajmi o'sishining asosiy omillaridan biri ekanini qayd etadi. U moliya bozorlarining chuqurligi va bank tizimining diversifikatsiyasi tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan.

Jonathan Morduchning tadqiqotlari moliyaviy instrumentlarning risklarni kamaytirishdagi ahamiyatini yoritadi. U sug'urta va kredit kafolatlari tizimi orqali ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy beqarorlikdan himoyalaniishi mumkinligini, bu esa ularning tashqi savdo operatsiyalarida faolroq ishtirok etishiga imkon berishini ta'kidlaydi.

Rivojlanayotgan davlatlar bo'yicha Jahon savdo tashkiloti (WTO) olib borgan tadqiqotlar kichik va o'rta korxonalar uchun trade finance imkoniyatlarining yetishmasligi eng katta muammo ekanini ko'rsatadi. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, SMElarga yo'naltirilgan trade finance so'rovlarining katta qismi banklar tomonidan rad etiladi, bu esa eksport hajmining kengayishini cheklaydi. Shu nuqtayi nazardan, Jonathan K. Morduch, Friederike Niepmann va Tim Schmidt-Eisenlohr kabi olimlar moliyaviy institutlar faoliyatini liberallashtirish, likvidlikni oshirish hamda kredit kafolat tizimlarini takomillashtirish tashqi iqtisodiy faollikni kengaytirishda hal qiluvchi omil deb hisoblaydi.

So'nggi yillarda Asian Development Bank (ADB) va Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kabi iqtisodiyoti o'sib borayotgan mamlakatlarda eksportyor korxonalar uchun trade finance bozorini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning yangi manbai hisoblanadi. Xususan, ADBning



O'zbekiston banklari bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan loyihalari eksportni moliyalashtirishdagi xalqaro kafolatlar tizimini kengaytirish, risklarni kamaytirish va yangi moliyaviy vositalarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, J.G. Cui va hamkorlari Xitoy misolida olib borgan tadqiqotlarida bank kreditlari, savdo kreditlari hamda eksport narxlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, valyuta kurslaridagi o'zgarishlar sharoitida banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyalashtirish vositalari eksport barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatgan.

Umuman olganda, xalqaro va mintaqaviy tadqiqotchilarning ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishning muvaffaqiyati bank tizimi likvidligi, risklarni taqsimlash mexanizmlari, davlat kafolatlari hamda kichik biznesga yo'naltirilgan maxsus kredit mahsulotlari mavjudligiga bevosita bog'liq. O'zbekiston sharoitida esa ushbu yo'nalishda xalqaro tajribalarni milliy moliya tizimiga integratsiyalash, eksport kredit agentliklari faoliyatini kengaytirish va supply chain finance mexanizmlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish holatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, statistik tahlil va qonunchilik asoslariga tayandi. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (2000 yil, 77-II-son) va 2022 yildagi 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni asosida moliyalashtirish jarayonlari huquqiy jihatdan baholandi. Logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirish usullarini o'rganishda Maxmudov (2023) tomonidan taklif etilgan yondashuvlar asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha o'tkazilgan tahlil so'nggi besh yilda (2020–2024) tashqi savdo hajmining barqaror o'sishini va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashish imkoniyatlarini namoyon etdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda tashqi savdo aylanmasi 36,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 62,6 milliard dollarga yetib, 72,7 foizlik o'sish qayd etilgan. 2024-yilning yanvar–mart oylarida tashqi savdo aylanmasi 15,1 milliard dollarga yetib, bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,4 foiz yuqori natijani ko'rsatdi.

Eksport hajmining 2020–2023-yillar oralig'ida 15,1 milliard dollardan 24,7 milliard dollarga oshgani milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi faolligi ortib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, import hajmining yuqori bo'lishi xalqaro savdo muvozanatini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu tendensiyalar kelgusida eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada samarali yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi.

Quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar uchun tashqi savdo va moliyalashtirish ko'rsatkichlarining dinamikasi umumlashtirib keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Tashqi savdo va moliyalashtirish ko'rsatkichlari (2020-2024)¹

Yil	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd \$)	Eksport (mlrd \$)	Import (mlrd \$)	Davlat kreditlari (trln so'm)	Xalqaro kreditlar (mlrd \$)
2020	36,3	15,1	21,2	1,2	1,8
2021	42,1	16,6	25,5	1,5	2,0
2022	50,0	21,0	29,0	1,8	2,1
2023	62,6	24,7	37,9	1,8	2,3
2024 (yanv-mart)	15,1	5,9	9,2	0,5	0,6

Jadval 2020–2024-yillar davomida tashqi savdo dinamikasini hamda moliyalashtirish manbalarining o'zgarishini aks ettiradi. Ushbu davrda eksport hajmi 63,6% ga oshgani tashqi iqtisodiy faollikning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, import hajmining 78,8% ga o'sishi xalqaro savdo muvozanatini yanada takomillashtirish uchun qo'shimcha strategik choralar zarurligini bildiradi. Davlat kreditlari hajmining 2020-yildagi 1,2 trillion so'mdan 2023-yilda 1,8 trillion so'mgacha ortgani milliy eksportni moliyalashtirish sohasida ijobiy dinamikani aks ettiradi. Kelgusida bu resurslarning ulushini oshirish eksport hajmini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

1 Manba: Tadqiqotchilar tomonidan Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) tomonidan taqdim etilgan kreditlar hajmining 2020-yildagi 1,8 milliard dollardan 2023-yilda 2,3 milliard dollarga yetgani O'zbekistonning xalqaro moliyaviy hamkorligi mustahkamlanayotganini anglatadi. Ushbu mablag'larning tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ulushini kengaytirish istiqbolda iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va eksport infratuzilmasini mustahkamlaydi.

Kichik va o'rta korxonalar milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirmoqda. 2020-yilda 451 mingta bo'lgan ushbu subyektlar sonining 2023-yilda 514 mingga yetgani ularning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirganidan dalolat beradi. Eksport faoliyatida kichik va o'rta biznes ulushining 7,5% dan 8% gacha o'sishi ularning tashqi iqtisodiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirish istiqbolini ko'rsatadi.

Bank kreditlari hajmining 2020-yildagi 245 trillion so'mdan 2023-yilda 392 trillion so'mgacha oshgani moliyaviy tizimda kreditlash salohiyatining ortganini anglatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan ulushni 12–13% dan yuqoriga ko'tarish istiqbolda eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda eksportning 65% xomashyoga (paxta va gaz) to'g'ri kelgan bo'lsa-da, qayta ishlangan mahsulotlar ulushining bosqichma-bosqich ortib borishi diversifikatsiya jarayonining ijobiy yo'nalishda kechayotganini ko'rsatadi. Quyidagi 2-jadval kichik va o'rta korxonalarning moliyaviy holati va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini yanada tahlil qilish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. Kichik va o'rta korxonalarning moliyaviy holati (2020-2023)²

Yil	Faol kichik va o'rta korxonalar soni	Eksportdagi ishtirok (soni)	Eksport ulushi (%)	Bank kreditlari (trln so'm)	Muammo darajasi (%)
2020	451,000	33,825	7,5	245	68
2021	472,000	36,064	7,6	298	69
2022	495,000	38,610	7,8	354	70
2023	514,000	41,120	8,0	392	70

Jadval kichik va o'rta korxonalarning eksportdagi ishtiroki hamda moliyaviy imkoniyatlarini yanada aniqlashtirib beradi. 2023-yilda 514 mingta kichik va o'rta korxona faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 41 120 tasi (8%) eksport bilan shug'ullangan. Bu esa ushbu segmentning tashqi bozorlarda ishtirok etish salohiyati bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bank kreditlari hajmining 2020-yildagi 245 trillion so'mdan 2023-yilda 392 trillion so'mgacha o'sishi moliyaviy tizimning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Kelgusida foiz stavkalarining maqbullashtirilishi korxonalarning moliyaviy yukini kamaytirib, ularning eksport faoliyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Eksport tarkibida xomashyo ulushining 65% ni tashkil etayotgani qayta ishlash sohasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar mavjudligini bildiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillarda tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish yo'nalishida barqaror o'sish dinamikasi kuzatilgan. Davlat va xalqaro kreditlarning hajmi ortib borayotgan bo'lib, bu iqtisodiyotning tashqi sektorini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Kichik va o'rta korxonalarning tashqi bozorlarda ishtirokini yanada faollashtirish, shuningdek, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlik darajasi oshiriladi.

So'nggi yillarda (2020–2024) tashqi savdo aylanmasining 36,3 milliard AQSh dollaridan 62,6 milliard dollarga yetishi iqtisodiyotning ochiqqligi va eksport imkoniyatlarining kengayganini ko'rsatmoqda. Ushbu o'sish "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (PF-60, 2022-yil 28-yanvar) hamda valyuta siyosatining liberallashtirish natijasida yuzaga kelgan bo'lib, tashqi savdo tizimining bosqichma-bosqich takomillashtirayotganidan dalolat beradi. Import hajmining yuqoriligi esa ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va ichki ishlab chiqarishni eksportga yo'naltirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Eksportni moliyalashtirishda davlat kreditlari hajmining 2023-yilda 1,8 trillion so'mgacha ortgani va xalqaro moliya institutlaridan 2,3 milliard dollar miqdorida mablag'lar jalb etilgani tashqi iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlantirish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu mablag'larning ulushini oshirish, ularni qayta ishlangan mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish iqtisodiy samaradorlikni yanada kuchaytiradi.

Kichik va o'rta korxonalar 2023-yilda iqtisodiyotning 54,9% qismini tashkil etgani va eksportdagi ulushi 8% ga yetgani ularning salohiyatini yanada faollashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bank kreditlari hajmining o'sishi bilan birga foiz stavkalarining maqbullashuvi korxonalar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, ularning tashqi

2 Manba: Tadqiqotchi tomonidan Statistika agentligi va WTO ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



bozorlarda faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, eksportda qayta ishlangan mahsulotlar ulushining ortib borishi diversifikatsiyalangan iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat siyosati va xalqaro hamkorlik yo'nalishida O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (WTO) a'zo bo'lish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish uchun yangi istiqbollar yaratmoqda. Xalqaro kredit liniyalarining hajmini oshirish, mahalliy banklar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish va imtiyozli moliyalashtirish vositalarini kengaytirish korxonalar uchun global bozorlarga chiqishni osonlashtiradi. 2024-yilning dastlabki choragida tashqi savdo aylanmasining 15,1 milliard dollarga yetgani O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida ijobiy o'sish tendensiyasi saqlanayotganidan dalolat beradi.

Shu asosda, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, imtiyozli kreditlar hajmini ko'paytirish va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish iqtisodiy rivojlanishning keyingi bosqichini shakllantiradi. Mavlonovning 2024-yilgi tadqiqotida qayd etilganidek, fiskal risklarni chuqur tahlil qilish va davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish yo'nalishida sezilarli progress kuzatilmoqda. Moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish istiqbolda iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlaydi. Kelgusida eksportda qayta ishlangan mahsulotlar ulushining ortishi, foiz stavkalarining optimallashtirilishi va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining chuqurlashuvi O'zbekiston iqtisodiyotining global integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot so'nggi besh yil (2020–2024) davomida erishilgan barqaror yutuqlar va istiqbolli yo'nalishlarni namoyon etdi. Tashqi savdo aylanmasining 2020-yildagi 36,3 milliard AQSh dollaridan 2023-yilda 62,6 milliard dollarga yetgani, shuningdek, eksport hajmining 15,1 milliard dollardan 24,7 milliard dollarga oshgani O'zbekistonning xalqaro savdo aloqalarida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Davlat kreditlari (2023-yilda 1,8 trillion so'm) va xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan mablag'larning (2,3 milliard dollar) hajmi yil sayin ortib borayotgani moliyalashtirish tizimining izchil takomillashayotganidan dalolat beradi. 2024-yilning dastlabki choragida tashqi savdo hajmining 15,1 milliard dollarga yetgani esa o'sish tendensiyasi barqaror davom etayotganini bildiradi. Abdulazizova (2024) ta'kidlaganidek, moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Kichik va o'rta korxonalar iqtisodiyotda markaziy o'rin egallab, tashqi bozorlarga chiqish salohiyatini izchil kengaytirmoqda. 2023-yilda ularning soni 514 mingga yetib, iqtisodiyotning 54,9% qismini tashkil etgani ularning milliy ishlab chiqarishdagi o'sib borayotgan rolini ko'rsatadi. Eksportdagi ulushining 8% ga yetgani bu segmentning xalqaro bozorlarda faol ishtirok etish istiqboli mavjudligini bildiradi. Bank kreditlari hajmining 2020-yildagi 245 trillion so'mdan 2023-yilda 392 trillion so'mgacha o'sishi moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarining kengayganidan dalolat beradi. Kelgusida foiz stavkalarining maqbullashtirilishi korxonalar uchun yanada qulay moliyaviy sharoitlar yaratib, ularning tashqi savdo faoliyatini faollashtiradi. Eksport tarkibidagi xomashyo ulushi 65% ni tashkil etayotgan bo'lsa-da, qayta ishlash sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish orqali diversifikatsiyalangan eksport tuzilmasini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish sohasida izchil o'sish tendensiyasi shakllangan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tilmoqda. Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, kichik va o'rta korxonalarning tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish, foiz stavkalarini optimallashtirish hamda qayta ishlash sohasiga sarmoyalarni ko'paytirish orqali moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish rejalashtirilmoqda. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyotining global bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2021). O'zbekiston Respublikasining 2020 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari. Toshkent: Stat.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2022). O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi tashqi savdo statistikasi. Toshkent: Stat.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). O'zbekiston Respublikasining 2022 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari. Toshkent: Stat.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). O'zbekiston Respublikasining 2023 yilgi tashqi savdo aylanmasi va iqtisodiy statistikasi. Toshkent: Stat.uz.



5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). 2024 yil yanvar-mart oylari bo'yicha tashqi savdo statistikasi (dastlabki ma'lumotlar). Toshkent: Stat.uz.
6. 2022 yildagi 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni. Toshkent: Lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. (2000 yil, 77-II-son). Toshkent: Lex.uz.
8. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO). (2023). O'zbekistonning tashqi savdo tuzilmasi va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy hisobot. Geneva: WTO.org.
9. Jahon Banki. (2023). O'zbekistonga ajratilgan moliyaviy yordam va investitsiyalar bo'yicha yillik hisobot. Washington, DC: Worldbank.org.
10. Osiyo Taraqqiyot Banki. (2024). O'zbekiston iqtisodiyotidagi moliyaviy loyihalar va kreditlar bo'yicha 2023 yil hisoboti. Manila: ADB.org.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>